

XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘QUVCHILARINING IJTIMOY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI, SHAKLLARI, METODLARI

Nasriddinova Feruza Abduvohidxo‘jayevna

Namangan davlat universiteti doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22301454>

Anotatsiya: Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda ushbu jarayonni tashkil etishning asosiy bosqichlari, shakllari va metodlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Xalq ertaklari, maqollar, dostonlar va darsdan tashqari tadbirlar orqali maxsus ehtiyojli bolalarni jamiyatga moslashtirish hamda ularning muloqot ko‘nikmalarini oshirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar, ijtimoiy faollik, ijtimoiy adaptatsiya, rivojlantirish bosqichlari, ta’lim shakllari, interaktiv metodlar, maxsus pedagogika.

ЭТАПЫ, ФОРМЫ И МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ ПОСРЕДСТВОМ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития социальной активности учащихся с ограниченными возможностями здоровья (ОВЗ) посредством образов устного народного творчества. В исследовании системно проанализированы основные этапы, формы и методы организации данного процесса. На примере народных сказок, пословиц, эпосов и внеклассных мероприятий показаны возможности адаптации детей с особыми образовательными потребностями в общество и повышения их коммуникативных навыков.

Ключевые слова: устное народное творчество, учащиеся с ограниченными возможностями здоровья (ОВЗ), социальная активность, социальная адаптация, этапы развития, формы обучения, интерактивные методы, специальная педагогика.

STAGES, FORMS, AND METHODS OF DEVELOPING SOCIAL ENGAGEMENT AMONG STUDENTS WITH DISABILITIES THROUGH ORAL FOLKLORE

Abstract: This article examines the issues of developing the social activity of students with disabilities through the medium of folklore. The study systematically analyzes the key stages, forms, and methods of organizing this process. Through folk tales, proverbs, epics, and extracurricular activities, it demonstrates the potential for adapting children with special educational needs into society and enhancing their communication skills.

Keywords: folklore, students with disabilities, social activity, social adaptation, development stages, educational forms, interactive methods, special pedagogy.

Kirish: Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish pedagogik maqsadga muvofiq hisoblanadi:

birinchidan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga jalb etish, og‘zaki nutq asosida til va an‘analar bilan tanishtirish sodir bo‘ladi.

ikkinchidan, madaniy xalq merosini yetkazish amalga oshiriladi.

uchinchidan, xalq og‘zaki ijodi namunalari yordamida bolada bilish jarayonlari rivojlanadi: xotira, diqqat, tasavvur, idrok, xayol, tafakkur.

to‘rtinchidan, mashg‘ulotlarda bolaning shaxs sifatleri rivojlanadi: irodasi, emotsionalligi, ijodiy faolligi.

Yuqoridagilar asosida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodi vositasida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning vazifalari kelib chiqadi:

1) o‘quvchilarni o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish;
2) o‘quvchilarda xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida improvizatsiyaning sodda turlarini qo‘llash va boshqalarni o‘rgatish;

3) imkoniyati cheklangan o‘quvchilarining quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishlariga erishish: xalq og‘zaki ijodi turlarini ajratish, xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish, og‘zaki nutq va nutq madaniyati qoidalariga rioya etish (nutq sur‘ati, ohangi, imo-ishoralar, intonatsiya va h.k.).

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarini xalq og‘zaki ijodi namunalari tanlashda ularning o‘ziga xos nazariy va amaliy bilimlarni egallaganliklarini nazarda tutish talab etiladi. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilari o‘z yosh xususiyatlari va ish xususiyatlariga ko‘ra xalq og‘zaki ijodining barcha turlarini egallay olmaydilar. Shuning uchun o‘qituvchining vazifasi bolalarni xalq og‘zaki ijodining turlari bilan tanishtirish, ularga qiziqish uyg‘otishdan iboratdir. M.S.Kaganning konsepsiyasiga [65] asosanib, keltirilgan modelda ifodalangan imkoniyati cheklangan o‘quvchilarining ijtimoiy faolliklarini shakllantirishning quyidagi yo‘llarini ajratamiz. Modelning barcha elementlari bir-biri bilan bevosita bog‘liq, chunki folklor o‘zining rivojlanish qonuniyatlari bilan mustaqil yaxlit tizimni tashkil etadi [1.68 b].

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarining voqelikka emotsional-qadriyatli munosabati faqatgina jonli ijro va ijod jarayonida namoyon bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodining emotsional ta’sirining kuchi tinglovchilar va ijrochilarda ijro etish vaqtida yuzaga keladigan bevosita ta’sirlanishdan iboratdir. Buni boshqalar qanday amalga oshirishlarini ko‘rish masalaning bir tomoni bo‘lsa (madaniy tadbirlarda, bayramda, televideniya orqali), boshqa tomoni – ijodiy-ijrochilik ishida o‘zining ishtirok etishi hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xosligi ishtirokchilar muhitida yuzaga kelishi va ularning o‘zlari uchun mavjud bo‘lishida ifodalanadi. Shu ma’noda xalq og‘zaki ijodi imkoniyati cheklangan o‘quvchilarining potensial imkoniyatlari va tashabbusini ifodalash, rivojlantirish, namoyon etishning samarali shakli hisoblanadi. Ifodalanganlardan xalq og‘zaki ijodini o‘rgatishning prinsiplari kelib chiqadi:

- o‘qitish jonli, norasmiy, amaliy xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun xalq og‘zaki ijodi xususiyatlarini tushunish zarur, bunga ikkita toifalar asosida erishiladi: an’analarining asosiy belgilarining barqarorligi va ularning variativligi; an’anaviy formulalarni saqlash va buning asosidagi mavjud bo‘lgan improvizatsiyalilik. Mazkur ziddiyatli toifalarga rioya etish to‘g‘ri metodik ustanovkani ta’minlaydi, unda xalq og‘zaki ijodi o‘ziga xosligini saqlab qoladi, boshqa tomondan u dogmatiklikdan holi bo‘ladi [2.115 b].

- o‘qitishda xalq og‘zaki ijodining sinkretik asosni saqlash, ya’ni o‘qitish jarayoni nutq ohangi, sur‘ati, so‘zi, hatti-harakatlarni birlashtirish, ular ijodiy faoliyatning uch turini belgilab beradi; she’riy matnning improvizatsiyasini; hatti-harakatlar improvizatsiyasini birlashtirish; matnning variatsiyasi va improvizatsiyasi.

- o‘qitish arxaik turdagi madaniyat xususiyatlarida ifodalanuvchi fikrlash qonunlaridan biriga – binar oppozitsiyalarga yo‘naltiriladi.

Nazariy tadqiqotlar, amaliy tajribaga tayanib, bolalarning ijtimoiy-pedagogik faolliklarini shakllantirish asta-sekin, bosqichma-bosqich sodir bo‘lishi to‘g‘risidagi xulosaga kelamiz, shuning uchun xalq og‘zaki ijodi bilan ishlash metodikasi *birinchi bosqichda* – qiziqarlilik va o‘yinga, *ikkinchi bosqichda* – fan to‘g‘risidagi bilimlarni jamoaviy ijodiy faoliyat orqali asta-sekin chuqurlashtirishga, *uchinchi bosqichda* – improvizatsiya orqali mustaqil ijodiy faoliyatga asoslanishi kerak [3.48-55 b].

Har bir ish bosqichiga bolaning ijtimoiy faolligi, qiziqishi, shaxs sifatleri shakllanganligining o‘z mezonlari mos keladi. Masalan, bilishga oid faoliyatga qiziqarlilik, yangilik, yorqinlik, bilishga oid faollik xos hisoblanadi. Bolalar ko‘proq o‘qishga intiladilar, tengdoshlarining chiqishlarini tomosha qiladilar va tinglaydilar, xalq og‘zaki ijodi namunalari to‘playdilar, albomlarni tayyorlaydilar va h.k. Mazkur bosqich o‘z ijodida foydali bo‘ladigan taassurotlarni jamlashga imkon beradi.

Ikkinchi bosqichda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ijodlari yetakchi rol o‘ynaydi. Bunda quyidagi mezonlar muhim:

- emotsionallik (yaxshi kayfiyat, qoniqish, xafalik, qayg‘urish va h.k.);
- ijodiy qiziqish (uning kuchi, davomiyligi, ifodaliligi);
- shaxs sifatleri va ijodiy qobiliyatlarni intensiv rivojlantirish.

Uchinchi bosqichda – xalq og‘zaki ijodiga, an‘analarga qadriyatlar va munosabatlar mezoni, o‘zini ijodda ifodalash, o‘z malakalarini boshqa insonlar uchun ifodalash istagi vaintilishinamoyon bo‘ladi.

Imkoniyati cheklangano‘quvchilarining o‘ziga xos xususiyatlari ijodiy universallik hisoblanadi: bolalar xalq og‘zaki ijodi namunalarini kuylaydilar, raqsga tushadilar, ijro etadilar[4.29 b].

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodi vositasida ijtimoiy faollik ni rivojlantirish uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, bunda darslar bilan cheklanib bo‘lmaydi.

O‘quvchilar bilan amalga oshiriladigan har qanday ta‘lim-tarbiyaviy tadbirlar ularning darsda olgan bilimlarini to‘ldirishi lozim. Shu jihatdan qaraganda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodi vositasida ijtimoiy faollik ni rivojlantirishda sinfdan tashqari ta‘lim jarayoni ham muhim pedagogik ahamiyatga ega. Mazkur ta‘lim-tarbiyaviy tadbirlarning uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, qiziqishlarini oshiradi, iste‘dodlarining namoyon bo‘lishiga imkoniyat yaratib beradi. Shunga ko‘ra, mazkur tadbirlarni samarali tashkil etish pedagogik dolzarb masalalardandir[5.124].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – B. 68.
2. Musurmonova O. Pedagogik qadriyatlar va tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2020. – B. 115.
3. Mahmudov M. Xalq pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 48–55.
4. Safarova R., Haydarov M. Maxsus pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – B. 29.
5. Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022. – B. 124.